

**Umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi psixolog xizmat xonalarini
jihozlashga qo'yiladigan
TALABLAR**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Talablar umumiy o'rta ta'lim muassasalarida psixologning xizmat xonalarini zamon talablariga muvofiq jihozlash, psixologik xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va samaradorligini ta'minlash maqsadida belgilanadi.

2. Ushbu talablar umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi psixolog xizmat xonalariga nisbatan texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar hamda sanitariya-gigiyena talablarini bajarilishini istisno etmaydi.

3. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi psixolog xizmat xonalarini tashkil etish va jihozlash bo'yicha zarur choralar ko'rilishi lozim.

2-bob. Psixolog xizmat xonasiga qo'yiladigan umumiy talablar

4. Psixologik xizmat xonasi quyidagi umumiy talablarga muvofiq bo'lishi lozim:

ta'lim muassasaning qulay joylashgan qismida, shovqindan himoyalangan hududda joylashishi;

xona maydoni O'zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirining 2024-yil 2-apreldagi 01/2-7-son buyrug'i bilan tasdiqlangan ShNQ 2.08.02-23 "Jamoat binolari va inshootlari" shaharsozlik normalari va qoidalariga hamda O'zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatining (ro'yxat raqami 89, 2022-yil 6-iyun) bilan tasdiqlangan "Qurilish ishlarini tashkil qilish bo'yicha sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlarini (0022-22-son SanQvaN) tasdiqlash to'g'risida" 2022-yil 17-maydagi 0022-22-son qaroriga muvofiq bo'lishi;

O'zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirining 2024-yil 5-avgustdagi 01/2-39-son buyrug'i bilan tasdiqlangan ShNQ 2.04.05-22 "Isitish, ventilyatsiya va konditsiyalash" shaharsozlik normalari va qoidalariga muvofiq isitish, ventilyatsiya yoki konditsioner bilan jihozlangan bo'lishi;

"Yong'in xavfsizligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq bo'lishi talab etiladi.

5. Psixologik xizmat xonasi psixologik tashxis, psixologik konsultatsiya, psixokorreksion va psixoprofilaktik ishlarni samarali amalga oshirish uchun tashkil etiladi va jihozlanadi.

6. Psixologik xizmat xonasi ta'lim muassasasining psixologi tomonidan boshqariladi.

3-bob. Psixolog xizmat xonasiga qo'yiladigan maxsus talablar

7. Psixologik xizmat xonasining maqsadli tashkil etilishi va talab darajasida jihozlanishi o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishi, ta'limga bo'lgan motivatsiyasi, ruhiy barqarorligi hamda ijtimoiy munosabatlariga katta ta'sir ko'rsatadi.

1-§. Pedagogik talablar

8. Psixolog xizmat xonasida korreksion mashg'ulotlar, psixologik tashxis, treninglar, maslahatlar, yakka (individual) va jamoaviy (guruh) suhbatlar o'tkazish bilan birga, turli psixologik mashg'ulotlarni tashkil etish hamda kasb-hunarga yo'naltiruvchi bilim berish nazarda tutilishi kerak.

9. Psixolog xizmat xonasini jihozlashda pedagogik muhitni yaratish muhim ahamiyat kasb etib, u barcha pedagogik mezonlar va me'yorlarga mos ravishda tashkil etilishi lozim.

10. Xona shaxsning ruhiyatiga ijobiy pedagogik-psixologik ta'sir ko'rsatish imkoniyati inobatga olingan hamda ta'lim jarayonini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan bo'lishi, shu bilan birga o'quvchilarning shaxsiy qobiliyatlari va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularga ruhiy yordam ko'rsatish uchun moslashtirilgan bo'lishi zarur.

11. Psixologik maslahatlar va ruhiy yordam jarayonida samaradorlikka erishish uchun jamoaviy hamkorlik muhitini ta'minlash ham tavsiya etiladi.

2-§. Psixologik-fiziologik talablar

12. Psixolog xizmat xonasini jihozlashda uning ta'miri, mebellari va ishlatiladigan materiallari psixologik-fiziologik talablarga mos ravishda tanlanishi lozim.

13. Jihoz va materiallardan foydalanish jarayonida ular o'qituvchi, o'quvchi hamda ota-onalarda qulaylik, emotsional xotirjamlik hissini uyg'otishi kerak.

3-§. Estetik talablar

14. Psixologik xizmat xonasidagi jihozlar, axborot vositalari, o'quv-metodik materiallar hamda ichki dizayn o'quvchilarda estetik didni shakllantirish, ruhiy xotirjamlikni ta'minlash va ijobiy emotsional muhit yaratishni inobatga olishi lozim.

15. Psixolog xizmat xonasidagi vizual axborot materiallari – plakatlar, maslahat burchaklari, tavsiyalar va metodik qo'llanmalar bosma va elektron ko'rinishda to'g'ri tanlangan, o'quvchilarning yosh xususiyatlariga moslashtirilgan bo'lishi lozim.

4-bob. Psixolog xizmat xonasining jihozlanishi

16. Psixolog xizmat xonasining samarali faoliyat yuritishi uchun xona bir nechta funksional hudud (keyingi o'rinda — zona) larga ajratilishi lozim. Har bir

hudud o'z vazifasiga muvofiq jihozlanishi, ergonomik va psixologik jihatdan qulay tarzda joylashtirilishi lozim.

1-§. Pedagog-psixologning ish joyi

17. Pedagog-psixologning ish joyi:
pedagog-psixologning kundalik ish faoliyatini yuritish;
hujjatlashtirish ishlarini amalga oshirish;
psixologik xulosa, tavsiyalar, ma'lumotnomalar tayyorlash uchun mo'ljallangan bo'lishi lozim.

18. Pedagog-psixologning ish joyi quyidagi jihozlar bilan ta'minlangan bo'lishi lozim:

- 1 ta ish stoli;
- 1 ta ergonomik ish kreslosi;
- 1 tadan saqlash uchun mebel jihozlari (shkaf, seyf yoki javonlar);
- 1 ta kompyuter stoli;
- 1 ta zamonaviy kompyuter texnikasi;
- Internet tarmog'i;
- 1 ta chop etish qurilmasi;
- 1 ta telefon aloqa apparati;
- 1 ta yozuv stoli uchun lampa;
- kanselyariya jihozlari to'plami (qog'oz, ruchka, qalam, marker, organayzer va h.k.);
- O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i;
- O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti surati.

2-§. Psixodiagnostika zonasi

19. Psixodiagnostika zonasi:
yakka va guruhli psixodiagnostika tekshiruvlarini o'tkazish;
turli testlar va psixologik mashg'ulotlar o'tkazish uchun mo'ljallangan bo'lishi lozim.

20. Psixodiagnostika zonasi quyidagi jihozlar bilan ta'minlangan bo'lishi lozim:

- 1 ta 2-3 kishilik stol;
- 4 ta stul;
- Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan psixodiagnostika metodikalar to'plami;
- ta'lim muassasalarida qo'llash uchun ruxsat etilgan metodikalar to'plami;
- o'zbek tiliga adaptatsiya qilingan va standartlashtirilgan testlar (masalan, Veksler testi, Kettel testi, Eysenk testi, MMPI, Raven progressiv matritsalar va h.k.);
- psixodiagnostika natijalarini qayd etish va saqlash uchun maxsus jurnallar;
- psixodiagnostika ishlariga oid me'yoriy hujjatlar yig'majildi.

3-§. Psixologik konsultatsiya zonasi

21. Psixologik konsultatsiya zonasi:

o'quvchilar, o'qituvchilar va ota-onalar bilan individual konsultatsiyalar o'tkazish;

psixologik muammolarni muhokama qilish va psixologik yordam ko'rsatish uchun mo'ljallangan bo'lishi lozim.

22. Psixologik konsultatsiya zonasi quyidagi jihozlar bilan ta'minlangan bo'lishi lozim:

1 ta yumshoq kreslo yoki divan;

2-3 ta stul;

1 ta qulay suhbat qurish uchun yon stoli;

maxfiylikni ta'minlash uchun shirma yoki pardalar;

tinch va ishonchli muhitni yaratishga yordam beruvchi dekorativ elementlar (O'zbekiston Respublikasi madaniyatini aks ettiruvchi);

individual konsultatsiyani qayd etish uchun maxsus jurnallar.

4-§. Psixokorreksion va psixoprofilaktik ishlar zonasi

23. Psixokorreksion va psixoprofilaktik ishlar zonasi:

guruhli psixologik treninglar o'tkazish;

psixokorreksion dasturlarni amalga oshirish;

rivojlantiruvchi mashg'ulotlar o'tkazish;

psixologik o'yinlar va mashqlar o'tkazish;

art-terapiya, qum terapiyasi va boshqa psixoterapevtik usullarni qo'llash uchun mo'ljallangan bo'lishi lozim.

24. Psixokorreksion va psixoprofilaktik ishlar zonasi quyidagi jihozlar bilan ta'minlangan bo'lishi lozim:

1 ta stol;

6-8 ta stul;

psixologik o'yinlar to'plami (sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga mos va Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan tavsiya etilgan);

art-terapiya uchun materiallar (qog'oz, qalam, bo'yoqlar, plastilin);

1 tadan qum terapiyasi uchun maxsus stol va qurilma;

metodik qo'llanmalar to'plami;

o'zbek tiliga tarjima qilingan korreksion dasturlar to'plami;

psixologik mashqlar to'plami;

1 ta guruhli ishlar uchun doska yoki flipchart;

psixologik profilaktika uchun plakatlar;

psixokorreksion ishlarni qayd etish uchun maxsus jurnal.

5-§. Relaksatsiya zonasi

25. Relaksatsiya zonasi:

psixologik zo'riqishni kamaytirish;

stress holatlarni yengish;
dam olish va bo'shshish;
emotsional holatni barqarorlashtirish;
psixologik tinchlantirish uchun mo'ljallangan bo'lishi lozim.
26. Relaksatsiya zonasi quyidagi jihozlar bilan ta'minlangan bo'lishi lozim:
1-2 ta o'zbek an'anaviy ko'rpachalari yoki yumshoq gilamlar;
2-3 ta relaksatsiya uchun yumshoq pufikli o'rindiqlar yoki bolishlar;
1-2 ta tinchlantiradigan effektga ega bo'lgan yoritish moslamalari;
1 ta audio ijro etish qurilmasi (O'zbekiston madaniyatiga mos relaksatsion musiqalar to'plami);
O'zbekiston Respublikasining go'zal tabiat manzaralarini aks ettiruvchi rasmlar;
1 ta akvarium yoki boshqa tabiiy relaksatsiya vositalari;
xushbo'y hidlarni tarqatuvchi vositalar;
relaksatsiya mashqlarining to'plami.

5-bob. Psixolog xizmat xonasi uchun materiallar va jihozlarni saqlash

27. Psixodiagnostik metodikalar va materiallar maxsus seyfa, qulflanadigan joyda saqlanishi lozim.
28. Psixologik tekshiruvlar natijalari va shaxsiy ma'lumotlarni saqlashda maxfiylik talablariga rioya qilinishi kerak.
29. Psixologik xizmat xonasidagi barcha hujjatlar O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining buyruqlari hamda amaldagi tegishli normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq yuritilishi va saqlanishi shart.

6-bob. Psixolog xizmat xonasining sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga muvofiqligi

30. Psixolog xizmat xonasida:
har kuni kamida bir marta tozalash ishlari amalga oshirilishi;
haftada kamida bir marta gigiyenik tozalash ishlari o'tkazilishi;
oyda kamida bir marta umumiy tozalash ishlari o'tkazilishi;
yilda kamida ikki marta (o'quv yili boshlanishidan oldin va o'quv yili yakunida) kapital tozalash ishlari o'tkazilishi talab etiladi.
31. Psixolog xizmat xonasida o'quvchilar sog'lig'i va xavfsizligini ta'minlash uchun quyidagi tadbirlar amalga oshirilishi lozim:
xonaning harorati 18-22°C oralig'ida saqlanishi;
havoning namlik darajasi 40-60 % oralig'ida saqlanishi;
xonaning tabiiy va sun'iy yoritilishi belgilangan me'yorlarga muvofiq bo'lishi;
xonada toza havo almashinuvi ta'minlanishi;
elektr xavfsizligi choralari ko'rilishi;
yong'in xavfsizligi choralari ko'rilishi.
32. Psixolog xizmat xonasida quyidagi xavfsizlik vositalari bo'lishi lozim:
dori qutisi (aptechka);

yong'in xavfsizligi haqida eslatma;
evakuatsiya rejasi;
favqulodda holatlar uchun telefon raqamlari ro'yxati.

7-bob. Psixologik yordam ko'rsatish joyiga nisbatan qo'yiladigan talablar

33. Psixologik yordam ko'rsatish joyida guruh shaklida psixologik yordam ko'rsatilganda, guruh dinamikasi, ishtirokchilar soni va ishlatiladigan usullar hisobga olinishi zarur. Xonada mashg'ulot rejalashtirilishi guruh ishining vazifalariga mos ravishda makonni o'zgartirish imkoniyatini ta'minlashi lozim.

34. Olis, qiyin yetib boriladigan, tabiiy va texnogen favqulodda holatlar yuz bergan hududlarda standart sharoitlarni ta'minlashning imkoni bo'lmasa yoki cheklansa, psixologik yordam ko'rsatishda xavfsizlik va maxfiylikning asosiy talablari bajarilishi zarur. Shuningdek, joyning va aholi yashash hududining ijtimoiy-madaniy xususiyatlari inobatga olinishi lozim.

35. Psixologik yordam ko'rsatish joyini o'zgartirishni talab qiluvchi, masalan, yordam oluvchining holati yoki boshqa obyektiv omillar bilan bog'liq vaziyatlarda, psixologik yordam boshqa joylarda ko'rsatilishi mumkin. Bunday hollarda xavfsizlik, maxfiylik va kasbiy-axloqiy tamoyillarga rioya qilish majburiydir. Psixologik yordam ko'rsatish joyini vaqtincha o'zgartirishda ishning standart formatiga qaytish muddati va shartlari aniqlanishi, shuningdek, o'zgartirilgan sharoitlarda ko'rsatiladigan xizmat sifatini ta'minlash rejasi ishlab chiqilishi lozim.

36. Psixologik yordam ko'rsatish joyining belgilangan talablarga muvofiqligi muntazam ravishda baholanib, nazorat qilinishi kerak. Agar belgilangan talablarga nomuvofiqlik aniqlansa, bunday kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tegishli choralar ko'rilishi zarur.

37. Yuqorida keltirilgan psixologik yordam ko'rsatish joyiga qo'yiladigan talablar masofaviy tarzda yoki real vaqt rejimida psixologik yordam ko'rsatishga nisbatan tatbiq etilmaydi, maxfiylik va kasbiy xususiyatlarga qo'yiladigan talablar bundan mustasno.

38. Masofaviy tarzda psixologik yordam ko'rsatishda psixologning joylashgan joyi ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlashi kerak. Xona audio va video aloqa o'rnatish imkonini beruvchi texnik vositalar bilan jihozlangan bo'lishi lozim. Favqulodda holatlarda ma'lumotlarning maxfiyligi ta'minlangan taqdirda, xonaga qo'yilgan talablarga rioya qilmasdan psixologik yordam ko'rsatishga ruxsat beriladi.

8-bob. Inklyuziv ta'lim yoki boshlang'ich tayanch korreksion sinfi mavjud ta'lim muassasalarida psixolog xizmat xonasini jihozlashga qo'yiladigan talablar

39. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 12-oktabrdagi 638-son qarori bilan tasdiqlangan Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomga ko'ra maktabda inklyuziv ta'lim sinfi yoki boshlang'ich tayanch korreksion sinfi tashkil etilgan bo'lsa, ta'lim

muassasasi psixologi har bir o'quvchining psixik salomatligini himoyalash maqsadida quyidagi vazifalarni bajaradi:

- o'quvchini individual rivojlantirish (oilada va inklyuziv ta'lim sharoitida ta'lim berish) dasturlarini tuzish;

- o'quvchilar bilan guruhlarda mashg'ulotlar olib borish;

- o'quvchilarni doimiy ravishda psixolog-pedagogik jihatdan o'rganish va ularni tarbiyalash bo'yicha ota-onalarga maslahatlar berish;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni psixologik-pedagogik rivojlantiruvchi o'yinlar uchun taktil sezgilarni rivojlantirish maqsadida xizmat xonasini sensor o'yinchoqlar (yumshoq sharlar, matolar, magnit doskalar, loy, plastilin yoki kinetik qum) bilan jihozlash;

- san'at terapiyasi uchun rangli qog'oz, qalamlar, bo'yoqlar, mozaikalar va konstruktorlardan foydalanish;


- zaruratga qarab sensor xona elementlaridan yorug'lik terapiyasi, LED lampalar, harakatni rivojlantiruvchi elementlar, oyna yoki bir tomonlama ko'zgu (bola o'zini kuzatishi va o'z his-tuyg'ularini tushunishi uchun) o'rnatish;

- tabiiy elementlar – gul va o'simliklardan xonada ijobiy energiya yaratish;

- tinchlantiruvchi rasm, suratlar, tabiat manzaralari, iliq ranglardan foydalanish;

- bolalar chizgan rasmlarni, yozgan yaxshi so'zlarni devorga ilib qo'yish uchun joy ajratish.

9-bob. Psixolog xizmat xonasini tashkil etish va jihozlash bo'yicha tavsiyalar



1-rasm. 18 m² maydonda tashkil etilgan psixolog xizmat xonasi



2-rasm. Psixolog uchun ish joyi



3-rasm. 16 m² maydonda tashkil etilgan psixolog xizmat xonasi




4-rasm. 24 m² maydonda tashkil etilgan psixolog xizmat xonasi



5-rasm. Relaksatsiya va sensor hudud

Individual mashg'ulotlar uchun psixolog

Individual mashg'ulotlar va korreksion ishlarni o'tkazish uchun majoy



Mashg'ulotlar uchun ko'chma stollar

Dam olish uchun yumshoq mebellar

Relaksatsiya va sensor hudud

6-rasm. 60 m² maydonda tashkil etilgan psixolog xizmat xonasi